



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

HOSHIMOV “TUSHDA KECHGAN UMRLAR” ROMANINING LEKSIK- SEMANTIK TAHLILI

A LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF HOSHIMOV’S NOVEL “TUSHDA KECHGAN UMRLAR”

Boltayeva Zilola Yo‘ldoshali qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Stajyor o‘qituvchisi

E-mail: zilolaboltayeva3885@gmail.com

Xabibullayev Diyorbek Mirazimboy o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi 3-kurs 303-guruh talabasi

E-mail: diyorbek111104@gmail.com

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026/LJPT5670](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026/LJPT5670)

Annotatsiya: *ushbu maqolada “Tushda kechgan umrlar” romani leksik-semantik jihatdan tahlil qilinadi. Badiiy matnda uchragan ma’nodosh so‘zlar, vulgarizmlar, varvarizmlar aniqlanib lisoniy tahlili beriladi.*

Kalit so‘zlar: *ma’nodosh so‘zlar, kontekstual ma’nodoshlik, frazeologik ma’nodoshlik, leksik-frazeologik ma’nodoshlik, vulgarizmlar, varvarizmlar, lisoniy tahlil.*

Annotation: *this article analyzes the novel “Late Lives in a Dream” from a lexical-semantic point of view. Linguistic analysis is given from the synonyms, vulgarisms, and barbarisms found in the literary text.*

Key words: *synonyms, contextual semantics, phraseological semantics, lexical-phraseological semantics, vulgarisms, barbarisms, linguistic analysis.*

Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida yozuvchining tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi. Buning uchun badiiy asar tilidagi ma’nodosh, shakldosh, zid ma’noli, ko‘p ma’noli, tarixiy va arxaik so‘zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so‘zlar, chet va vulgar so‘zlar ajratib olinadi va asarga nima maqsad bilan olib kirilganligi izohlanadi.

“Ma’nodosh so‘zlar tilning lug‘aviy jihatdan boylik darajasini ko‘rsatib beruvchi o‘ziga xos vositadir. Tilda ma’nodosh so‘zlarning ko‘p bo‘lishi tilning estetik vazifasini yana-da to‘liq bajara olishini osonlashtiradi. Bu juda qadim



zamonlardan beri anglangan, idrok etilgan va o'rganilgan hodisadir. O'zbek tili ma'nodosh so'zlarga juda boy. Yozuvchilar tilimizdagi ma'nodosh so'zlar ichidan tasvir maqsadiga eng munosibini topib ular orqali qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha ifodalashga harakat qiladilar. Badiiy matndagi ma'nodosh so'zlar tahlilida, asosan, ikki jihatga e'tiborni qaratish zarur. Ulardan biri muallifning ikki yoki undan ortiq ma'nodosh so'zdan ifodalanayotgan mazmun uchun eng maqbul birini tanlashi bo'lsa, ikkinchisi ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma'nodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg'un holda qo'llashi masalasidir”. [Yo'ldoshev M., Eldiyorov K. 2007: 45]

Kontekstual ma'nodoshlik. “Katta mahoratli yozuvchilarning badiiy til borasidagi ustunliklaridan biri shundaki, ular faqat tilda mavjud bo'lgan, tayyor ma'nodosh so'zlardangina foydalanib qolmasdan, badiiy tasvir ehtiyojiga ko'ra ma'nodosh bo'lmagan so'zlarni ham shunday qo'llaydilarki, bu so'zlar ham matnda xuddi ma'nodosh so'zlar kabi idrok etiladi”. [Mamajonov A. 1999: 38]

Frazeologik ma'nodoshlik. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zi o'ngida aniq va to'la gavdalantirishda frazeologik iboralarning ma'nodoshligidan keng foydalaniladi. Toqati toq bo'lmoq - sabr kosasi to'lmoq, burni ko'tarilmoq - dimog'i shishmoq, yaxshi ko'rmoq - ko'ngil bermoq, ikki oyog'ini bir etikka tiqmoq - oyoq tirab olmoq, og'ziga tolqon solmoq - mum tishlamoq kabilar frazeologik ma'nodoshlikka misol bo'ladi. Jumla tarkibida kelgan ma'nodosh iboralar qahramon bilan aloqador biror bir sifatni, xususiyatni detallashtirib, ikir-chikirigacha ko'rsatib tasvirlashga xizmat qiladi. Masalan: U yenggan, yutgan, oshig'i olchi kelgan, deganini bo'ldirgan kundosh emasmi? **Leksik-frazeologik ma'nodoshlik.** “Lug'aviy birlik sifatida frazeologizmlar so'zlar bilan ham sinonimik munosabatda bo'la oladi”. Masalan: Xursand - og'zi qulog'ida, g'azablanmoq - jahli chiqmoq, beg'am - dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydi kabilar leksik-frazeologik ma'nodoshlik hisoblanadi. Badiiy matnda ma'nodoshlikning bunday turidan holatni bo'rttirib, atroflicha tasvirlashda foydalaniladi. Badiiy adabiyotda muayyan tasvir maqsadi bilan o'zga tilga oid so'z va iboralar qo'llanishi kuzatiladi. Tilning lug'at tarkibiga kiritilmagan, faqatgina og'zaki nutqda mavjud bo'lgan bunday chet so'zlaridan badiiy nutqda voqealar bo'lib o'tayotgan o'ringa ishora qilish, nutqiy vaziyat va unda ishtirok etayotganlarning milliy mansubligi, qahramonlar xarakteri haqida ma'lumot berish maqsadida foydalaniladi. Bunday birliklar varvarizmlar deb yuritiladi. “Tilshunoslikda vulgarizmlar deb ataluvchi haqorat so'zlarida o'ta salbiy munosabat, kamsitish, mensimaslik, haqorat kabi bir qator ifoda semalari juda ochiq ko'rinib turgan bo'ladi. Bunday so'zlar ko'proq nominativ ma'nolariga ko'ra emas, ayni shu konnotativ ma'nolariga ko'ra nutqda yashaydi. Haqorat so'zlari badiiy

asarlarda asosan, qahramonlar nutqida ishlatiladi. Lisoniy tahlil jarayonida badiiy asarga olib kirilgan vulgarizmlarni kimning (jinsi, ijtimoiy tabaqasi, mavqei, yoshi kabilari) nutqida ishlatilayotganligiga qarab guruhlash, qanday vaziyatlarda va nima sababdan qo'llanilayotganligini hamda ularning leksik-semantik tarkibi, shevaga xoslanganligi kabilarni aniqlash lozim bo'ladi”. [Lapasov J.1995: 57]

–Hayvon! – dedi Larisa baqirib, – Qachon odam bo'lasan, cho'chqa.

Hayvon – odati, qilg'i, xatti-harakati jihatidan hayvonga o'xshashlikni, haqoratni bildiradi. Bu o'rinda qo'llangan so'z matnning emotsional ta'sirini oshirgan, qahramonning xarakterini kitobxonga bildirgan.

“Ertaga paxtaga ketiladi” – metonimiya usulida ma'no ko'chishi.

Paxta – bu o'rinda paxta terimi ma'nosida kelgan. O'quvchiga sujet sodir bo'layogan davr va makonga nisbatan tasavvur hosil qilgan. Kitobxonni matnga yaqinlashtirgan.

“Qulog'im sizda” – metafora usulida ma'no ko'chishi.

Qulog'im senda – gapiraver eshitaman, eshityapman ma'nosida qo'llangan. Badiiy matnda dialogning jonliligini ta'minlagan.

“Havo sovuq, osmonda zahardek achchiq qor uchqunlari erinchoq kezadi”. Achchiq qor – metafora usulida ma'no ko'chishi. Zahardek – o'xshatish, qor zaharning achchig'iga o'xshatilgan. Achchiq – ta'mi og'iz tilni achitadigan, loyillatadigan.

“Ha senmiding Hindular sardori”, – Tasviriy vositalar yordamida obraz yaratilgan. Badiiy matnning emotsional-ekspressivligini ta'minlagan.

– Keksalik-da! – dedi Qurvonoy xola.

– Meni qari deyapsanmi, xex! – kontekstual ma'nodoshlik

Qari – yosh ulg'aya borishi bilan organizmning a'zo va sistemalarida paydo bo'ladigan salbiy o'zgarishlarga uchragan insonlarga nisbatan qo'llaniladi.

Keksalik – umrning yetuklikdan so'nggi, organizm faoliyati asta-sekin zaiflasha boradigan davri, kishining shu davrga, yoshga xos holati, qarilik. Keksalik davri.

– Aytingchi eringizning asabi joyidamidi?

– Jahllari yomon edi. – ma'nodoshlik

Asab – bosh va orqa miyadan barcha a'zolarga tarqalgan va ularning faoliyatini boshqarib turadigan juda ingichka nerv tomirlari tizimi va shu tomirlarning har biri.

Jahl – nojo'ya xatti-harakatda, gapdan yoki voqea-hodisadan ranjish, achchiqlanish, g'azablanish tuyg'usi, g'azab.

Xulosa. O'tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida qo'llangan leksik-semantik birliklar asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini chuqur ochib berishga xizmat qiladi. Muallif shevaga oid so'zlar, frazeologizmlar, vulgarizm va emotsional-ekspressiv leksika orqali qahramonlarning ruhiy holatini ishonarli qilib tasvirlaydi.



Roman tilida ijtimoiy-siyosiy va maishiy leksikaning uyg'un qo'llanishi davr muhitini aniq aks ettirishga imkon beradi. Umuman olganda, asarning leksik-semantik xususiyatlari O'tkir Hoshimovning individual uslubini belgilab beruvchi muhim omil hisoblanadi.

Adabiyotlar:

- 1.Yo'ldoshev M., Eldiyorov K. Badiiy matnning lisoniy tahlili fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2007.
- 2.Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
- 3.Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – Toshkent, 1999.
- 4.Mamajonov A., Mahmudov U. Uslubiy vositalar. – Farg'ona, 1996.
- 5.Mahmudov N. Abdulla Qahhor hikoyalarining lingvopoetikasi // O'zbek tili va adabiyoti. – 1987. – №4. – 34–36-betlar.
6. O'tkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar: roman. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994. 320 bet.